

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
**ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA**

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova</b>	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari .....	144
<b>M.O.Gopirov</b>	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США .....	148
<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b>	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati .....	153
<b>K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) .....	157
<b>O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova</b>	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
<b>A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov</b>	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari .....	172
<b>D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) .....	180
<b>E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova</b>	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlarini .....	186
<b>Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova</b>	
Yer resurslarini majmualari tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
<b>N.O'.Komilova</b>	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
<b>Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov</b>	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
<b>Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva</b>	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
<b>O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova</b>	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlarini.....	212
<b>M.M.Atajonov</b>	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari .....	217
<b>A.A.Isayev, S.A.Ergashev</b>	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish .....	220
<b>M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova</b>	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlarini .....	224
<b>D.M.Abduraxmonov</b>	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	230
<b>D.B.Kosimov</b>	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari .....	234
<b>H.N.Naimov</b>	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) .....	239
<b>M.H.Otamirzayeva</b>	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar .....	243
<b>U.Sh.Uktamov</b>	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
<b>S.M.Xudoyberdiyeva</b>	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni.....	252
<b>T.D.Komilova</b>	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish .....	257

**TABIY LANDSHAFTLARDAN IQTISODIY – IJTIMOY GEOGRAFIK  
FOYDALANISHNING BAZI MASALALARI**

**НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЭКОНОМИКО-СОЦИАЛЬНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОГО  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ ЛАНДШАФТОВ**

**SOME ISSUES OF ECONOMIC-SOCIO-GEOGRAPHICAL USE OF NATURAL  
LANDSCAPE**

**Mo'minov Doniyor G'ulomovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini dotsenti,  
g.f.n.

**Abdinazarova Xidoyat Oripovna<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti. G.f.f.d. (phd), katta o'qituvchi.

**Annotatsiya**

Tabiiy landshaftlarning geoeologik-xo'jalik holatining hududiy jihatlari tahlil qilish asosida, Farg'ona viloyati qishloq joylar hududining geoeologik-xo'jalik holatiga tashxis qo'yish, baholash va takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil va sintez, geografik taqqoslash, tarixiy-geografik, iqtisodiy-statistik, matematik, kartografik, tasniflash va rayonlashtirish, reytingli baholash va boshqa tadqiqot usullari qo'llanildi. Farg'ona viloyati qishloq joylar misolida geoeologik-xo'jalik holatni tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Oxirgi 100 yillikda geoeologik-xo'jalik holatni makon va zamonda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi, mavjud geoeologik-xo'jalik holatni baholash asosida uni takomillashtirishning qishloq aholisi etnoeologik madaniyatini tiklash, qishloq hududlarida ekologik-xo'jalik muvozanatni saqlash, agrodemografik bosimni kamaytirish, xo'jalikni an'anaviy va innovatsion tarmoqlarini rivojlantirish kabi yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur tadqiqot ishida qishloq joylarning geoeologik-xo'jalik holati Farg'ona viloyati misolida tadqiq etildi hamda uni takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Respublikamizda qishloq joylarni geografik tadqiq etishning nazariy asoslari yangi yo'nalish bilan boyitildi. Hozirgacha qishloq joylarni geografik o'rganishda asosiy e'tibor xo'jalik va aholini geografik tadqiq etishga qaratilgan, ya'ni, "qishloqning xo'jaligi", "qishloqning aholisi" kabi mavzular chuqur o'rganildi. Geografik tadqiqotlar uchun ahamiyatli bo'lgan "qishloqning joyi, hududi, ekologiyasi" tadqiqotchilar nazaridan biron chetda qolgan. Shuning uchun mazkur tadqiqotda qishloqning "joylari"ga, "hududi"ga, undan xo'jalikda foydalanishning geoeologik jihatlari e'tibor qaratiladi. Geografiyaning boshqa tadqiqot ob'ektlarida kuzatilgan kabi qishloq joylarni o'rganishda ham ekologik-geografik yo'nalishdagi izlanishlarning ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur yo'nalishda qishloq joylarni geografik tadqiq etishda xo'jalik va aholining tabiatga ko'rsatadigan ta'sir ko'lamini, miqdori, davomiyligi va hududiy jihatlari ahamiyat berildi, tadqiq etildi. Qishloq joylar hududining tashqi antropogen ta'sirlarga chidamlilik darajasi va mavjud holatni baholash asosida geoeologik-xo'jalik holatni takomillashtirishning an'anaviy va zamonaviy usullari ishlab chiqildi. O'ziga xos etnoeologik madaniyat, tabiiy-agrar imkoniyat, demografik vaziyat va iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan Farg'ona viloyati misolida qishloq joylardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha landshaftli rejalashtirish dasturi ishlab chiqildi va buning uchun qishloq joylar hududining mavjud geoeologik-xo'jalik holatini shakllanishiga bilvosita ta'sir etuvchi omillar aniqlandi va o'rganildi.

**Аннотация**

С целью обеспечения устойчивого развития сельской местности разработать рекомендации по основным направлениям совершенствования их геоэколого-хозяйственного состояния. Системный анализ и синтез, историко-географические, экономико-статистические, сравнительно-географические, картографирование, районирование, рейтинговая оценка и др. Разработаны научно-методические основы исследования геоэколого-хозяйственного состояния сельской местности на примере Ферганской области, изучены изменения факторов, влияющих на геоэколого-хозяйственное состояние в пространственно-временном аспекте за последние 100 лет. На основе результатов оценки геоэколого-хозяйственного состояния определены пути их совершенствования, разработаны основы восстановления этноэкологической культуры сельского населения, способы сохранения геоэколого-хозяйственного баланса территории сельской местности, пути уменьшения агродемографической нагрузки, тенденции развития традиционных и инновационных отраслей хозяйства. В данной исследовательской работе изучено геоэколого-экономическое состояние сельских местностей на примере Ферганской области и разработаны следующие выводы и научно-практические рекомендации по его улучшению. В нашей республике теоретическая база географических исследований сельской местности обогатилась новым направлением. До сих пор основное внимание в географическом изучении сельской местности было сосредоточено на географическом изучении хозяйства и населения, то есть изучались такие темы, как «хозяйство села», «население села». Важное для географических исследований «расположение, территория, экология села» остались исследователями позади. Поэтому в данном исследовании уделяется внимание «местам», «территории» села, геоэкологическим аспектам его использования в хозяйстве. Как наблюдается и по другим объектам исследования географии, при изучении сельской местности возрастает значение исследований эколого-географического направления. В этом направлении при географических исследованиях сельской местности большое значение придавалось масштабу, величине, продолжительности и

территориальному аспекту воздействия хозяйства и населения на природу. На основе уровня устойчивости сельских территорий к внешним антропогенным воздействиям и оценки сложившейся ситуации были разработаны традиционные и современные методы улучшения геоэкологического и экономического состояния. На примере Ферганской области, имеющей особенную этноэкологическую культуру, природно-аграрный потенциал, демографическую ситуацию и экономический потенциал, разработана программа ландшафтного планирования, направленная на улучшение использования сельских территорий, и для этого учитываются факторы, которые косвенно влияют на формирование существующей геоэколого-экономической ситуации сельских территорий выявлено и изучено.

**Abstract**

On the purpose of steady developing of the countryside, working up recommendations according to main courses of geoeconomic-perfection. Systematic analysis and synthesis, comparative geography, historic-geographic, economic-statistical, cartography, countryside extension, score evaluation and so on. Bases of scientific-research methods on geoeconomic-economic condition for Ferghana region as a rural area has been elaborated. Factors that made an effect on rural localities for the last 100 years have been studied, on the basis of current geoeconomic-economic evaluation scale, and reformation of ethnoecologic culture of rural areas, preservation of ecologic-economic balance in countryside, reduction of agrodemographic pressure, and the course of developing traditional and innovative branches of rural economy has been defined. In this research work, the geo-ecological and economic state of rural areas is studied using the example of the Fergana region and the following conclusions and scientific and practical recommendations for its improvement are developed. In our republic, the theoretical basis of geographical research in rural areas has been enriched with a new direction. Until now, the main attention in the geographical study of rural areas has been focused on the geographical study of the economy and population, that is, such topics as "village economy" and "village population" have been studied. The "location, territory, ecology of the village", which is important for geographical research, was left behind by researchers. Therefore, this study pays attention to the "places", "territory" of the village, and the geo-ecological aspects of its use on the farm. As is observed in other objects of geography research, when studying rural areas, the importance of ecological-geographical research increases. In this direction, in geographical studies of rural areas, great importance was attached to the scale, magnitude, duration and territorial aspect of the impact of the economy and population on nature. Based on the level of resistance of rural areas to external anthropogenic influences and an assessment of the current situation, traditional and modern methods have been developed to improve the geo-ecological and economic condition. Using the example of the Fergana region, which has a special ethno-ecological culture, natural-agrarian potential, demographic situation and economic potential, a landscape planning program has been developed aimed at improving the use of rural areas, and for this, factors that indirectly influence the formation of the existing geo-ecological and economic situation of rural areas are taken into account. Territories have been identified and studied.

**Kalit so'zlar:** qishloq joylar, qishloq joylarning geoeologik-xo'jalik holati, qishloq joylarning geoeologik-xo'jalik jihatdan zo'riqish darajasi, etnoeologik madaniyat, landshaft tabiiy tarkibining o'zgarishi, agrodemografik bosim, hududning geoeologik-xo'jalik muvozanati, an'anaviy va inovatsion xo'jalik tarmoqlari.

**Ключевые слова:** сельская местность, геоэколого-хозяйственное состояние сельской местности, геоэколого-хозяйственная напряженность сельской местности, этноэкологическая культура, изменение природного состава ландшафта, агродемографическая нагрузка, геоэколого-хозяйственный баланс территории, традиционные и инновационные отрасли хозяйства.

**Key words:** rural areas, the geoeconomic-economic condition of the country, degree of geoeconomic intensity of rural areas, ethnoecologic culture, change in natural landscape composition, agrodemographic pressure, geoeconomic-economic balance of the region, traditional and innovative branches of the rural economy.

**KIRISH**

Geografik muhit – aholi – xo'jalik tizimi o'zaro ta'siri, uyg'unligi va mutanosibligining mahsuli bo'lib, ularning har biri o'zlari joylashgan hududning tabiiy-landshaft, ijtimoiy - iqtisodiy xususiyatlarini o'zida ifodalaydi. Tabiiy landshaftlarning antropogen landshaftlardan, masalan shaharlardan farqi aholi manzilgohlarini tashkil etishda ham, ishlab chiqarish jarayonida ham bevosita tabiiy muhitga kengroq bog'liqligidadir. Masalan, Farg'ona viloyatida aholining 42 foizi qishloqlarda yashagani holda, qishloq joylar hududi viloyat hududining 98 foizini egallaydi. O'zbekistonda qishloqlarning tashkil topishi, hududiy joylashishi va rivojlanish negizini qishloq aholisining tabiiy resurslardan (birinchi navbatda yer va suvdan) foydalanish madaniyati belgilaydi.

Tabiiy muhitdagi, hususan, qishloq joylardagi bugungi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolarni yuzaga kelishiga uzoq yillar davomida olib borilgan tabiatga bo'lgan noto'g'ri yondashuv sabab bo'ldi. "Istiqbolsiz" aholi maskanlarini tugatish, shahar bilan qishloq o'rtasidagi farqni yo'qotish kabi urinishlar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Sababi, qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy islohotlarni bir vaqtda qishloq joylardagi aholi maskanlariga tadbir etish qiyin kechmoqda. Yaqingacha "istiqbolli" shahardan qolishmaydigan, xo'jalikning markaziy qo'rg'oni hisoblangan qishloqlarda aholining katta qismini bir xil malakali mehnat resursi sifatida to'planishi, yer resurslarining yetishmasligi, ish bilan ta'minlash hamda demoeologik vaziyatlarning keskinlashuvi kuzatilmoqda [1].

Aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan, miqdoriy jihatdan cheklangan yer-suv resurslariga antropogen ta'sir ko'lamini yildan-yilga ortib borayotgan, geoeologik vaziyat

ko'p hollarda noqulay bo'lgan Farg'ona viloyati qishloq joylari hududidan foydalanishda geokologik barqarorlikni, ya'ni ekologik va xo'jalik muvozanatini ta'minlash, agrodemografik yukni kamaytirish, etnoekologik madaniyatni tiklash va boyitish asosida landshaft talabiga moslashtirish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega vazifadir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qishloq joylarni dastlabki geografik tadqiq etish fransuz olimi P.Jorj tomonidan amalga oshirildi. Tadqiqotchi birinchi bo'lib qishloq aholisining joylashishini qishloq xo'jaligini yuritishga ta'sir etuvchi ijtimoiy va tabiiy omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatib berdi. Qishloq joylarni geografik o'rganishda asosan tabaqalashtirilgan, ixtisoslashtirilgan yondashuvga amal qilindi. A.N.Rakitnikov qishloq xo'jaligi geografiyasiga asos solganiga ko'p vaqt bo'lmay, S.A.Kovalev qishloq aholisini geografik o'rganishning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Natijada, qishloq joylarni geografik tadqiq etish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan uzviy bog'liqlikda olib borilmadi. Tadqiqotchilar qishloq xo'jaligi yoki qishloq joylar (aholisi) geografiyasi bilan alohida shug'ullandilar. Bu tadqiqotlarda qishloq xo'jaligini qishloq aholisiz, qishloq joylarni esa asosiy ishlab chiqarish tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligisiz bir tomonlama o'rganish holatlari ham bo'ldi. Lekin O'zbekistonda, jumladan Farg'ona vodiysida bajarilgan dastlabki ishlarda majmualiy yondashuv ustunlik qildi [2].

Tadqiqotni olib borishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Farg'ona viloyati hokimligi statistika, qishloq va suv xo'jaligi bosh boshqarmalari, yer resurslari va kadastr davlat qo'mitasi ma'lumotlari hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil va sintez, geografik taqqoslash, tarixiy-geografik, iqtisodiy-statistik, matematik, kartografik, tasniflash va rayonlashtirish, reytingli baholash va boshqa tadqiqot usullari qo'llanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Iqtisodiy geografiya fanida Farg'ona vodiysi bo'yicha bajarilgan ishlarda birinchi navbatda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun yaqin yillarda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari ko'rsatib berilgan. Ayniqsa, qishloq joylarda tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha aytilgan fikrlar juda o'rinli hisoblanadi. Jumladan:

- yaqin yillar ichida vodiya qishloq aholisi sonini ortib ketishi bashorat qilindi, chunki tabiiy o'sish MDH o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan uch marta yuqori ekanligi kuzatilmogda;
- qishloq joylarda aholining mavsumiy bandligi muammosini ham hal etish zarurati kuchayib borishi, qishloq aholisini qish oylarida ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlariga tortish masalasini qo'yish zarur;
- Farg'ona vodiysining qishloq joylarida bandlik muammosini hal etish uchun qishloq xo'jaligini mehnattalab tarmoqlari (polizchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik) hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish muhim;
- aholi o'sish sur'atlarini e'tiborga olgan holda Markaziy Farg'onada, hamda adir va tog' oldi hududlarini o'zlashtirish taklifi o'rinlidir [10].

Yuqoridagi takliflarning barchasi ham bozor iqtisodiyoti va ekologik muvozanat nuqtai nazaridan baholansa u qadar yetarli, asosli emasdir. Lekin vodiyning qishloq joylari uchun xos bo'lgan asosiy muammo, tabiiy va mehnat resurslari o'rtasidagi mutanosiblikka erishish ekanligi to'g'ri qo'yilgan. Qishloq joylar *hududini* iqtisodiy geografik jihatdan o'rganishda asosiy e'tibor tabiiy sharoit va resurslardan xalq xo'jaligi tarmoqlarida foydalanishni baholash hamda istiqbollarni bashoratlashga qaratiladi. Qishloq joylar tabiatini o'rganishga landshaftli yondashuv bir vaqtda joyning orografik o'rni, iqlimi, gidrologik, tuproq hamda biologik resurs ko'rsatkichlarini o'rganish va tabiiy agrar imkoniyatini baholash va bashoratlash imkonini beradi [11].

Qishloq joylari hududida tabiiy landshaft ko'rsatkichlarining o'zgarish darajasi, ifloslanishi va tabiiy resurslarning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini o'rganish geokologik yo'nalishdagi geografik tadqiqotlarning asosini tashkil etdi.

### XULOSA

Qishloq joylar *xo'jaligini* geografik o'rganish ikkita yo'nalishda, uch bosqichda olib borilishi maqsadga muvofiq. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, birinchi navbatda qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etish va rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va geokologik jihatlari majmualiy tadqiq etiladi. Shuningdek, qishloq joylarda sanoat, qurilish, transport tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi, shakllanishi va rivojlanishi geokologik xo'jalik nuqtai-nazardan o'rganiladi.

Ikkinchi yo'nalishda, nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari (xizmat ko'rsatish, qishloq joylarda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va ta'lim, sog'liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish) bilan bog'liq jihatlar o'rganiladi. Bugungi kunda qishloq joylarda aholi va xo'jalik, ularning

ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladigan ilmiy-tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, tajriba stansiyalari, kasb hunar kollejlari, oliygohlarni oqilona joylashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligi, melioratsiya va irrigatsiya, agronomiya, agroiqtisodiyot sohasidagi kasb-hunar kollejlari va oliygohlarni qishloq joylarga joylashtirishning hududiy jihatlarini geoeologik-xo'jalik jihatdan tahlil etish muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Qishloq joylar *aholisini* geografik tadqiq etish aholi geografiyasi va demografiyaning an'anaviy tarmoqlaridan biri sifatida rivojlanib kelmoqda. Qishloq aholisining o'sishi, joylashishi, mehnat resurslari va ularning xo'jalik tarmoqlarida bandligi kabi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik jihatlarini o'rganiladi. O'rganilayotgan mintaqada qishloq aholisining soni va zichligi ortib borishi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yer miqdori va uning o'zgarishi kabi ko'rsatkichlarning hududiy jihatlarini o'zgarishi tahlil qilinadi [13].

Hozirgi geografik izlanishlarda *ekologik-geografik muammolar* qishloq joylarni o'rganishda ham yetakchi o'rinni egallamoqda. Mazkur tadqiqotlarning markazida xo'jalik va aholining tabiat bilan o'zaro aloqasi, tabiatga o'tkaziladigan antropogen ta'sirni me'yoralashtirish, tabiatning antropogen ta'sirlarga chidamlilik darajasini, qishloq joylardagi ekologik muammolarning geografik jihatlarini belgilash turadi.

Natijada hududning geoeologik-xo'jalik jihatdan zo'riqish darajasi, agrodemografik bosim hamda landshaftlarning tabiiy tarkibini o'zgarishini me'yoralashtirishga erishiladi. Qishloq joylarida geoeologik-xo'jalik holatni takomillashtirishning hududda geoeologik-xo'jalik muvozanatni saqlaydigan, landshaft talabiga mos foydalanish usullarini qo'llash imkonini beradigan, alohida "barqaror" rivojlanish nuqtalari bo'lgan qishloqlar ajratib ko'rsatilgan landshaftli dasturi taklif etiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmadaliev Yu. I. Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning hududiy tashkil etilishini takomillashtirish (Farg'ona vodiysi misolida). Geografiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.:2007. - 334-b. (Ahmadaliev Yu. I. Improving the territorial organization of the use of land resources in agriculture (in the example of the Fergana Valley). Dissertation written for the degree of Doctor of Geography. T.: 2007. - p. 334).
2. Nigmatov A., Yusupov R. Geoeologiya va uning asosiy muammolari. //Ekologiya xabarnomasi. – Toshkent, 2005. - №6. 14-16-b. (Nigmatov A., Yusupov R. Geoeology and its main problems. //Ecology Bulletin. - Tashkent, 2005. - #6. p. 14-16).
3. Клокова К.В. Традиционное природопользование коренных малочисленных народов севера (географические и социально-экономические проблемы): Автореф. дис. ... док. геогр. наук. - М.: 1998. – 30 с. // [www.rangifer.org/gumilev/k12\\_2\\_shtm#06](http://www.rangifer.org/gumilev/k12_2_shtm#06). (Klokova K.B. Traditional nature management of indigenous peoples of the north (geographical and socio-economic problems): Author's abstract. dis. ...doc. geogr. Sci. - M.: 1998. – 30 p. // [www.rangifer.org/gumilev/k12\\_2\\_shtm#06](http://www.rangifer.org/gumilev/k12_2_shtm#06)).
4. Кочуров Б.И., Геоэкология: экодигностика и эколого-хозяйственный баланс территории. - Смоленск: СГУ, 1999. - 154 с. (<http://www.izdatgeo.py>). (Kochurov B.I., Geoeology: ecodiagnosis and ecological and economic balance of the territory. - Smolensk: SSU, 1999. - 154 p. (<http://www.izdatgeo.ru>)).
5. Mominov Daniyori Gulomovich. USE OF TOPONOMIC DATA IN GEOGRAPHY LESSONS. Eur. Chem. Bull. 2023,12(Special Issue 1, Part-B), 1896-1901. Article History: Received: 01.02.2023.
6. Mominov Daniyori Gulomovich. GEOECOLOGICAL BASIS OF SOUTH FERGANA NATURE PROTECTION AND RATIONAL USE OF NATURAL RESOURCES. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/1418.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022.
7. Mo'minov D.G'. Qo'ziboeva O.M. SUG'ORILADIGAN YERLARDAN FOYDALANISH VA LANDSHAFT-MELIORATIV BAHOLASH (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA). «Ekonomika i sotsium» Vypusk №1(104) 2 chast (yanvar, 2023). Sayt: <http://www.iupr.ru>. ISSN 2225-1545. UDK 004.02:004.5:004.9. (Mominov D.G. Koziboeva O.M. USE OF IRRIGATED LANDS AND LANDSCAPE-MELIORATIVE ASSESSMENT (ANDIJAN REGION AS AN EXAMPLE). "Economics and society" Vypusk #1(104) 2 chapters (January, 2023). Website: <http://www.iupr.ru>. ISSN 2225-1545. UDK 004.02:004.5:004.9).
8. Muminov Daniyori Gulomovich. SOME CONSIDERATIONS ON THE ECOLOGICAL STATUS OF LAND RESOURCES GALAAXY. INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY. RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Volume 10, Issue 12, December, 2022. ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.718.
9. Mo'minov Daniyori Gulomovich. GEOECOLOGICAL MAPPING OF LAND RESOURCES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. VOLUME 3, ISSUE 3, MARCH-2022. ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565.
10. Mo'minov Daniyori Gulomovich. Geoeologik muammolarni bartaraf etishda agrodemografik bosimni hisobga olish. Academic research in educational sciences. volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. (Mominov Daniyori Gulomovich. Considering agrodemographic pressure in solving geoeological problems. Academic research in educational sciences. volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723).
11. Muminov Daniyori Gulomovich. Some issues of socio-economic geographical study of rural areas. TJG - Thematics journal of Geography. Vol-5-Issue-1-2021. ISSN – 2277-2995. <http://thematicsjournals.in> UIF 2020= 6.722 IFS 2020 = 7.652.
12. Д.Ф.Мўминов. Улучшение геоэколого-хозяйственного состояния сельской местности путём оптимизации агродемографического давления. "Илм сарчашмалари". Урганч давлар университетининг илмий-назарий, методик журнали. 2022-4. (D.G.Muminov. Improving the geo-ecological and economic condition of rural areas by optimizing agrodemographic pressure. "Ilm sarchashmalari." Urganch davlar universityning ilmiy-nazariy, journal methods. 2022-4).